

“Avesta” dagi xudolarning antromorf va zoomorf timsollari.

Rustam Mamajonov

II kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqola **“Avesta” dagi xudolarning antromorf va zoomorf timsollari masalasiga bag’ishlangan**, Avestadagi ma’bud va ma’budalarning mifologik qatlami juda ham qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu timsollar zardo’shtiylikkacha bo’lgan davrda ham alohida xurmat-e’tiborga sazovor bo’lishgan va aynan ana shu jihatlar xosilasi o’laroq keyinchalik bular zardto’shtiylik dinining muqaddas ilohlariga aylangan.

“Avesta”- ajdodlarimiz e’tiqod qilgan zardo’shtiylik dinining muqaddas kitobi bo’lib, dunyodagi eng qadimgi ilohiy kitoblardan biri hisoblanadi. Bu kitob uzoq ajdodlarimizning ijtimoiy hayoti, ma’naviy dunyosi haqida qimmatli ma’lumotlarni o’zida mujassam etgan tarixiy yozma manbadir. Kitobni yaratilganligiga uch ming yildan oshdi. Shunga qaramay haligacha bu kitob o’zining beqiyos ahamiyatini yo’qotmagan. “Avesta” ni o’rganish bo’yicha turli davrlarda turli kitoblar yozilgan. Har bir asarda mualliflar “Avesta”da yashiringan bebaho xazinani bashariyatga yetqazishga harakat qilganlar.

Shunisi diqqatga sazovorki, zardo’shtiylik dini o’z mohiyatiga ko’ra monoteistik ya’ni yakkaxudolik dini hisoblanadi. Lekin qadimgi ajdodlarimiz uchun yagona xudo degan tasavvurni fahmlash murakkab jarayon hisoblangan. Bu esa zardo’shtiylik dinining taraqqiyotiga to’sqinlik qilishi mumkin bo’lgan. Shuning uchun keyinchalik bu dinga ko’plab xudolar kiritilgan. Ammo diniy e’tiqod bo’yicha bu xudolar bosh Oliy Xudo – Axuramazda tomonidan yaratilgan. Ana shu

xudolarga e'tiqod qilish bevosita Axuramazdaning o'ziga e'tiqod qilish sifatida tushunilgan. "Avesta" Yasht kitobida Axura Mazda shunday deydi:

“Men Mitrani o'zimdek

Namozu alqovlarga

Loyiq qib yaratganman

Yaylovlarni keng qilib

Yaratganman men uni”¹

Lekin ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, zardo'shtiylikdagi ko'plab xudolar bu din vujudga kelgunidan avval ham mavjud bo'lgan va bu narsa ajdodlarimizning totemistik e'tiqodlari bilan bog'liq. Xudo Axura Mazda yaratgan ma'bud zotlardan biri Varaxran bo'lib, uning ilohiyot asoslari zardo'shtiylik dinidan qadimiyroq.² Uning funksiyalari ko'p jihatdan Mitraga o'xshab ketadi, lekin Mitra ko'proq ilohiy missiyaga ega bo'lsa, Varaxran real zaminiy kuch egasiga o'xshash harakat qiladi. Varaxranning insonlar ko'z o'ngida paydo bo'lish shakli turlicha. Bu ma'bud Varaxran Yashtining 17-bandida 15 yoshli navqiron yigit timsolida ko'zlari tiniq va oqil, oyoqlari chaqqon, qaddi basti baland navqiron sifatida paydo bo'ladi. Varaxran Yashtining 27-bandida esa u qo'lida xanjar tutgan devqomat erkak bo'lib ko'rinish beradi.³ Varaxranning zoomorf ko'rinishlari uning odam qiyofasidagi shakllaridan ko'proqdir. Agar bir joyda u oppoq ot timsolida ko'rinish bersa, yana bir boshqa joyda esa Varag'n qushi timsolida namoyon bo'ladi. Varaxranning to'rtinchi marta Zardo'sht qoshiga kelganida u tuyga ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu ham aynan totemistik e'tiqod an'analari bilan bog'liq. Chunki tuyga-buyuklik, ulug'lik timsoli, hokimiyat va kuch-qudrat ramzi sifatida tasavvur qilingan. Qadimda podsholar taxtining tuyga

¹ Авесто: Яшт китоби. М. Исҳоқов тарж. –Т.: Шарқ, 2001. –Б. 47.

² Жўраев Ш. Авесто Яштларида маъбудлар. –Т., 2009. –Б. 16.

³ Авесто: Яшт китоби...Б. 99.

shaklida yasalganligining asosi ham ana shunda.⁴ Arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan O`rta Osiyo tangalarida va haykallarida tuya tasviri tushirilganligi ma`lum. Bu materiallardagi tasvirlarda O`rta Osiyoda qadim vaqtlarda tuya kulti o`z ifodasini topganligi va bu an`ana Avesto mifologiyasi bilan bog`liqligi olimlar tomonidan qayd qilingan.⁵

Avestada keltirilgan ma`budalardan biri bu Ardvi sura hisoblanadi. Uning vazifalari ham turlicha bolib, u devlarga qiron soluvchi, homilador ayollarning ko`z yorishini oson etguvchi, non –u risq o`stirguvchi ma`buda sifatida tasvirlanadi. Ardvi Suraning ma`buda sifatidagi obrazi unga bag`ishlangan alqovda inson qiyofasida ta`riflanadi. Lekin tasvir ifodalarida mifologik alomatlar ham ko`rinib turadi.⁶ 7-bandda Ardvi Sura “oq bilakli go`zal” qiyofasida paydo bo`ladi. 13-bandda mazkur antropomorf tasvir yanada takomillashadi: “Ardvini aravada to`rt oq jiyron ravon eltibbormoqda. Bu jiyronlar devlarga, jinlarga, jodugarlarga, inson dushman bo`lgan barcha yovuzliklarga qiron soladi”.⁷ Ardvi Suraning arava bilan bog`liq ushbu tasviriga A. Livshis Ardvi Sura dastlab qadimiy davrlarda haykal sifatida tasvirlangan va marosimlarda joydan-joyga aravada olib yurilgan, degan fikrni bayon etgan. Bundan shunday fikr kelib chiqadiki Ardvi Sura juda qadimgi tasavvurlar mevasi bo`lib, insoniyat ilohiy tushunchalarni tabiiy obrazli shakllardan ajratishni, ularni mavhumlashtirishni boshlagan davrga xosdir. Yashtlarda ismi keltirilgan ma`budalardan yana biri bu –Ashi hisoblanadi. Ashi borliqni yo`qlikdan paydo qilgan Axura Mazdaning qizidir. Bu haqida “Ashi” yashtida shunday deyiladi:

“ Kim e`zozlar Ashini-
Axura Mazda qizin,
Valilar singlisini

⁴ Эшмуродов М. Авестада табиат кулътлари талқини. –Т., 2002. –Б.97.

⁵ Эшмуродов М. Кўрсатилган асар. –Т., 2002. –Б.97.

⁶ Уразова Р. Зардуштийликдаги маъбудаларнинг тарихий-ижтимоий таҳлили. –Т., 2013. –Б.77.

⁷ Уразова Р. Зардуштийликдаги маъбудаларнинг тарихий-ижтимоий таҳлили. –Т., 2013. –137 б.

Xaloskor bilga, donnish,
Mag`firat eltuvchiga-
Ezgu Ashiga olqish,
Topinchimiz erur baxsh”.⁸

Ko`p funksional jihatlarda Ashi va Ardvi Sura bir-biriga o`xshab ketadi. Lekin ularning namoyon bo`lishida farqlarni ko`rishimiz mumkin: Ardvi Sura antroporf real tasvirda ifodalansa, Ashi esa mavhum zot ko`rinishida tasavvur etiladi. Ardvi Sura yordamini idrok etsa, Ashi o`zining yaqin kelishi, ezguliklarga izdoshligi ko`mak beradi. Professor M.Is`hoqov fikricha Ashi Axura Mazda dinidagi odamlarning din amallarini mukofotlash maqsadida ular bilan izma-iz yurib kuzatuvchi farishta sifatida ham tushunilgan. U kimga yondoshib yaqinlashsa, o`sha odamga baxt, omad yor bo`ladi, degan ishonch bo`lgan.<sup>9</sup> Demak bundan ham bilsa bo`ladiki, Ashi ko`proq ilohiy, ko`rinmas bir xilqat shaklida tasavvur etiladi va bu obraz zardo`shtiylik dini barqarorlashgan davrga to`g`ri keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Avestadagi ma`bud va ma`budalarning mifologik qatlami juda ham qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu timsollar zardo`shtiylikka bo`lgan davrda ham alohida xurmat-e`tiborga sazovor bo`lishgan va aynan ana shu jihatlari xosilasi o`laroq keyinchalik bular zardto`shtiylik dinining muqaddas ilohlariga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Авесто: Яшт китоби.М.Исҳоқов тарж. –Т.:Шарқ,2001. -126б.
- 2.Уразова Р. Зардуштийликдаги маъбудаларнинг тарихий-ижтимоий таҳлили. –Т.,2013. -137 б.
- 3.Жўраев Ш. Авесто Яштлирида маъбудлар. –Т.,2009. -36 б.
- 4.Эшмуродов М.Авестада табиат культлари талқини. –Т.,2002. -97 б.

⁸ Авесто: Яшт китоби...Б.38.

⁹ Авесто: Яшт китоби...Б.39.

